



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 5-son

VOLUME 4 / ISSUE 5 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.5.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

“Yurisprudensiya” –
“Юриспруденция” – “Jurisprudence”
huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston
matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda
1140-sonli guvohnoma bilan davlat
ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent
davlat yuridik universitetiga tegishli.
Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal
materallaridan foydalanish, tarqatish
va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan
amalgan oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

Sh. Jahonov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev,
K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Jurnal 24.10.2024-yilda bosmaxonaga
topshirildi. Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli 12 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 152.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy
boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

MAS‘UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili
va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori
(Boston, AQSH)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori
(Toshkent, O‘zbekiston)

I. To‘raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b.,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

S. Xolboyev – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi
huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi
(Toshkent, O‘zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti
dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik
fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Ne‘matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik
fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция – Yurisprudensiya – Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Ш. Жахонов, Е. Ярмолик,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Й. Махмудов, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Журнал передан в типографию
24.10.2024.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 12. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 152.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Верховном судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” –
“Юриспруденция” – “Jurisprudence”
legal scientific and practical journal
was registered by the Press and Infor-
mation Agency of Uzbekistan on De-
cember 22, 2020 with certificate No.
1140.

The journal is included in
the list of journals of the Higher
Attestation Commission under the
Ministry of Higher Education, Science
and Innovations of the Republic of
Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent
State University of Law. All rights re-
served. Use, distribution and reproduc-
tion of journal materials are carried
out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

Sh. Jakhonov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

The journal is submitted to the Printing
house on 24.10.2024.

Paper size: A4.

Cond. p.p. 12. Unit: 100.

Order: 152.

Published in Printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of
Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State
University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences, Associate
Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and
Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy
in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law
(Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk,
Poland)

A. Khoshimxonov – Professor of Tashkent State University of Law,
Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Axmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law,
Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

X. Xayitov – Professor of the Academy of Public Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law
(Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State
University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent,
Uzbekistan)

S. Xolboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges
under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan,
Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Raxmonkulova – Associate Professor of the University of World
Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor
of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor
of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of
Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State
University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent,
Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

8 **ODILQORIYEV HOJIMUROD TO’XTAMURODOVICH**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining mamlakatda konstitutsiyaviy qonuniylikni ta’minlashdagi roli va ahamiyati

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

19 **XUDAYBERGENOV BEXZOD BAXTIYOROVICH**

Qurilish pudrati shartnomasining huquqiy tabiati bilan bog‘liq xorijiy davlatlar qonunchiligi

28 **SAYDIVALIYeva XURSHIDA XODJIABBAROVNA**

Oilada mulkiy nizolarni sudgacha hal etishning alternativ vositasi sifatida oilaviy huquqiy shartnomalarning yuridik tabiati

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOY TA’MINOT HUQUQI

40 **RAXIMOV MIRYOQUB AKTAMOVICH**

Mehnat va mashg‘ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash prinsipining ayrim jihatlar

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

54 **KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA**

Yaroqli va yaroqsiz jinoyatga suiqasd qilish

70 **YUSUPOVA FARINGIZ O‘KTAM QIZI**

Sog‘liqni saqlash sohasida shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashning huquqiy jihatlar

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

78 **ALISHAYEV SOBIR TURSUNBOYEVICH**

Sun‘iy intellekt va tahliliy tizimlarni hukm chiqarishda qo‘llash: istiqbollar va muammolar

92 **SHONAZAROV ABDUVALI SHONAZAROVICH**

Qalbakilashtirilgan hujjatlarni va qimmatli qog‘ozlarni aniqlashda e‘tibor berilishi zarur bo‘lgan jihatlar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

8 **ОДИЛКОРИЕВ ХОДЖИМУРОД ТУХТАМУРДОВИЧ**

Роль и значение Конституционного суда Республики Узбекистан в обеспечении конституционной законности в стране

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

19 **ХУДАЙБЕРГЕНОВ БЕХЗОД БАХТИЁРОВИЧ**

Законодательство зарубежных государств относительно правовой природы договора строительного подряда

28 **САЙДИВАЛИЕВА ХУРШИДА ХОДЖИАКБАРОВНА**

Правовая природа семейно-правового договора как альтернативное средство разрешения семейных имущественных споров до суда

12.00.05 – ТРУДОВОЕ ПРАВО. ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

40 **РАХИМОВ МИРЁКУБ АКТАМОВИЧ**

Некоторые аспекты принципа запрещения дискриминации в сфере труда и занятий

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

54 **КАМАЛОВА ДИЛДОРА ГАЙРАТОВНА**

Годное и негодное покушение на преступление

70 **ЮСУПОВА ФАРИНГИЗ УКТАМ КИЗИ**

Правовые аспекты обеспечения безопасности персональных данных в сфере здравоохранения

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА. ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО. СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

78 **АЛИШАЕВ СОБИР ТУРСУНБОЕВИЧ**

Применение искусственного интеллекта и аналитических систем при вынесении приговора: перспективы и вызовы

92 **ШОНАЗАРОВ АБДУВАЛИ ШОНАЗАРОВИЧ**

Аспекты, которые необходимо учитывать при обнаружении поддельных документов и ценных бумаг

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCE AND CUSTOMS LAW

8 **ODILQORIEV KHOJIMUROD TUKHTAMURODOVICH**

Role and significance of the Constitutional court of the Republic of Uzbekistan in ensuring constitutional legality in the country

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW.
INTERNATIONAL PRIVATE LAW

19 **KHUDAYBERGENOV BEHZOD BAKHTIYOROVICH**

Legislation of foreign countries on the legal nature of the construction contract

28 **SAYDIVALIEVA KHURSHIDA KHODJIABBAROVNA**

The legal nature of family-legal contracts as an alternative means of pre-trial solution of property dispute in the family

12.00.05 – LABOR LAW. THE LAW OF SOCIAL SECURITY

40 **RAKHIMOV MIRYOQUB AKTAMOVICH**

Some aspects of the principle of prohibition of discrimination in the field of work and training

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY.
CRIMINAL PROCEDURAL LAW

54 **KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA**

Viable and unviable attempt to commit a crime

70 **YUSUPOVA FARINGIZ UKTAM KIZI**

Legal aspects of ensuring the security of personal data in the field of healthcare

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. CRIMINOLOGY, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC
EXPERTISE

78 **ALISHAEV SOBIR TURSUNBOEVICH**

Application of artificial intelligence and analytical systems for sentencing: prospects and challenges

92 **SHONAZAROV ABDUVALI SHONAZAROVICH**

Aspects to consider when detecting fake documents and securities

Kelib tushgan / Получено / Received: 09.10.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 18.10.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.10.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.5./FJK03442

UDC: 341.01.330.342.24:614.2(045)(575.2)

SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA SHAXSIY MA'LUMOTLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING HUQUQIY JIHATLARI

Yusupova Faringiz O'ktam qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasida o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-8202-2160
e-mail: Faringiz002@gmail.com

Annotatsiya. Axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari sog'liqni saqlash sohasiga tatbiq etilganidan buyon ushbu jarayon bilan bog'liq tibbiy xizmatlarga talab o'smoqda, tizim esa rivojlanishda davom etmoqda. Mazkur maqolada shaxsiy ma'lumotlar, ayniqsa, bemorlarning tibbiy ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari o'rganildi. Tadqiqot davomida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha milliy va xalqaro huquqiy me'yorlar tahlil qilindi, ularni sog'liqni saqlash tizimida qo'llash xususiyatlari ochib berildi. Bundan tashqari, tibbiy ma'lumotlar bilan ishlashda maxfiylik va axborot xavfsizligini ta'minlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi. Shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi tashkilotlar va mutaxassislarining majburiyatlari, bemorlarning shaxsiy ma'lumotlarini saqlash hamda ularni noqonuniy ishlatilishdan himoyalash bo'yicha javobgarlik masalalari yoritildi. Maqolada tibbiyot sohasida shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligiga doir xalqaro huquqiy tajribalarning milliy qonunchilikka ta'siri, shuningdek, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti sharoitida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning zamonaviy usullari tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida sog'liqni saqlash tizimida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, sog'liqni saqlash huquqi, tibbiy maxfiylik, ma'lumotlar xavfsizligi qonunchiligi, tibbiy ma'lumotlar xavfsizligi, axborot xavfsizligi, maxfiy ma'lumotlarni himoyalash, elektron sog'liq, ma'lumotlarning noqonuniy ishlatilishi

ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ ПЕРСОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ В СФЕРЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ

Юсупова Фарингиз Уктам кизи,
преподаватель кафедры «Международное право и права человека»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. С внедрением информационных и телекоммуникационных технологий в здравоохранение растёт спрос на связанные с этим процессом медицинские услуги, в то же время данная система продолжает развиваться. Настоящая научная статья посвящена изучению правовых основ обеспечения безопасности персональных данных, особенно медицинских данных пациентов. В процессе исследования проанализированы национальные и международно-правовые нормы по защите персональных данных, раскрыты особенности их

применения в системе здравоохранения. Кроме того, были рассмотрены актуальные вопросы обеспечения конфиденциальности и информационной безопасности при работе с медицинской информацией. Также были затронуты вопросы ответственности организаций и специалистов в области здравоохранения за хранение персональных данных пациентов и защиту их от незаконного использования. В данной статье проанализировано влияние международного правового опыта на национальное законодательство в области безопасности персональных данных в области медицины, а также современные способы защиты персональных данных в условиях развития цифровых технологий. В результате исследования были разработаны предложения по обеспечению безопасности персональных данных в системе здравоохранения.

Ключевые слова: безопасность персональных данных, право на охрану здоровья, медицинская конфиденциальность, законодательство о безопасности данных, безопасность медицинских данных, информационная безопасность, защита конфиденциальных данных, электронное здравоохранение, незаконное использование данных

LEGAL ASPECTS OF ENSURING THE SECURITY OF PERSONAL DATA IN THE FIELD OF HEALTHCARE

Yusupova Faringiz Uktam kizi,

Teacher of the Department of International Law and Human Rights,
Tashkent State University of Law

Abstract. *Since the introduction of information and telecommunications technologies into the healthcare sector, the demand for medical services related to this process has been growing, and at the same time, the system continues to develop. This article examines the legal framework for ensuring the security of personal data, especially patient medical data. The study analyzed national and international legal norms on the protection of personal data, revealing the features of their application in the healthcare system. In addition, topical issues of secrecy and information security in working with medical data were considered. Also, the responsibilities of organizations and specialists in the field of healthcare and the issues of responsibility for storing personal data of patients and protecting them from illegal use were covered. The article analyzes the impact of international legal experience on the security of personal data in the field of medicine on national legislation, as well as modern methods of protecting personal data in the context of the development of digital technologies. As a result of the research, proposals were developed to ensure the security of personal data in the healthcare system.*

Keywords: *personal data security, healthcare law, medical confidentiality, data security legislation, medical data security, information security, privacy protection, e-health, illegal use of data*

Kirish

Butun dunyoda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, har bir soha qatori tibbiyotni ham rivojlantirgan holda raqamlashtirish, teletibbiy texnologiyalardan samarali foydalanish barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu vazifa qanchalik ustuvor ahamiyat kasb etishini bu borada ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgani, maqolalar yozilayotganidan ham bilish mumkin. Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yax-

shilashda xalqaro darajada tartibga solishuvchi ixtisoslashgan muassasa hisoblangan Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining norma ijodkorlik faoliyatini tahlil etish, ikki tomonlama hamkorlikni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi monitoringini olib borish, ratifikatsiya qilingan konvensiyalar talablaridan kelib chiqqan holda qonunchilikdagi normalarni qayta ko'rib chiqish, teletibbiyot texnologiyalaridan foydalanishda shaxsiy ma'lumotlarning xavsizligini ta'minlash, sohadagi xalqaro standart-

larni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishni kuchaytirish lozim.

O'zbekiston Respublikasining nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan olib borilayotgan tashqi siyosat strategiyasida tibbiyot sohasiga oid o'zaro manfaatli hamkorliklarni mustahkamlash va yanada rivojlantirish, sohasidagi asosiy huquqlarga oid ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarning normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tizimini keng rivojlantirmasdan turib, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, barqaror taraqqiyotga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas" [1], – deb bejiz ta'kidlamagan. Darhaqiqat, "axborot telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, zamonaviy tizimni shakllantirish, oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlarida ushbu texnologiyalarni joriy qilish hamda bu orqali birlamchi tibbiy xizmatni amalga oshirish, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazi qoshida teletibbiyotning yagona markazlashgan tizimini yaratish, yuqori axborot texnologiyalariga asoslangan elektron tibbiy yordam ko'rsatish tarmog'ini takomillashtirish" barqaror rivojlanish sohasidagi milliy vazifalar sifatida belgilab berildi. Shu nuqtayi nazardan, tibbiyot huquqini xalqaro darajada tartibga solishda yetakchi bo'lgan Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlik aloqalarining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bu borada nafaqat Respublikamizda, balki xalqaro tashkilotlar tomonidan ham ko'pgina hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2020–2025-yillarga mo'ljallangan "Global sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirish" strategiyasi, Jahon sog'liqni saqlash as-

sambleyasining elektron sog'liqni saqlash bo'yicha WHA58.28-sonli rezolyutsiyasi, JSSTning WHA 58.28 e-Health Rezolyutsiyasi (2005), Yevropa Parlamenti va Kengashi-ning 2011-yil 9-martdagi "Transchegaraviy tibbiy xizmatlar ko'rsatishda bemorlarning huquqlari" to'g'risidagi 2011/24/Yes-sonli Direktivasi, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonuni (1996), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, 2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi, 2018-yil 20-oktabrdagi "Sog'liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-sonli qaror va "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari shular jumlasidan.

Tibbiyot sohasida raqamlashtirish, ma'lumotlar bazasini yaratish va ularning maxfiy-likni ta'minlashga doir xususiyatlarni o'rganar ekanmiz, kiruvchi ma'lumotlarni qayta ishlashga vakolatli muassasaning tuzulmalarini ikkita asosiy yo'nalishga ajratgan holda tahlil qilishimiz lozim.

Axborotni to'plash (reyestr), ularni birlamchi qayta ishlash, ma'lumotlarni qayta ishlash uchun bemordan rozilik olish, tibbiyot muassasasining xodimlari to'g'risida ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq holatlar birinchi yo'nalishga kiradi. Kadr va buxgalteriya tomonidan tibbiyot muassasasi xodimlariga individual ko'rsatkichlarga ko'ra oylik ish haqi – maosh tayinlash, masofada turgan holda ko'rsatilgan tibbiy xizmat uchun to'lanadigan oylik maoshlar ikkinchi yo'nalishga xosdir [2].

Ta'kidlash kerakki, tibbiyot muassasalarida shaxsiy ma'lumotlardan tashqari, shaxsiy bo'lmagan ma'lumotlar ham bor bo'lib,

ulardan ilmiy maqolalar yozish va statistik ma'lumotlarni yig'ishda foydalaniladi. Ushbu sohadagi kamchilik va muammolarni tibbiy muassasalarda ma'lumotlar maxfiylikni saqlash va tartibga solishga oid me'yoriy-huquqiy bazani tahlil qilish orqali o'rganishimiz mumkin.

“Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonun O'zbekiston Respublikasida ushbu sohani tartibga solishga qaratilgan asosiy me'yoriy-huquqiy hujjat sanaladi. Ushbu qonun shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish va ularni himoya qilish vaqtida qo'llanadigan vositalardan, shu jumladan, axborot texnologiyalaridan qat'i nazar, yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilishini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, qonunda shaxsga doir ma'lumotlar tushunchasiga ham ta'rif berilgan. Bu muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri. Olimlar mavzu bo'yicha turli yondashuvlarni ilgari surmoqdalar.

E. Usmanova, K. Gorbachevalarning fikriga ko'ra, “Shaxsiy ma'lumotlar” deganda shaxsni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan har qanday ma'lumotlar tushuniladi. Bu shaxsning ismi, manzili, tug'ilgan sanasi va boshqa shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi [3].

Sog'liqni saqlash huquqi bo'yicha taniqli mutaxassis O. Gostinning ta'kidlashicha, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tizimining qonuniy asoslarini mustahkamlash uchun zarurdir. U, ayniqsa, tibbiyotda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning xalqaro va milliy qonunchilik normalarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish zarurligini ta'kidlaydi. Gostinning fikriga ko'ra, davlatlar sog'liqni saqlashda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunchiligini tako-

millashtirishda xalqaro tajribalarga suyanish kerak [4].

L.T. Kohn Buyuk Britaniyada sog'liqni saqlash tizimida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha tadqiqot olib borgan. U bemorlarning roziligisiz ma'lumotlardan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Lindaning ta'kidlashicha, har bir bemor o'z tibbiy ma'lumotlaridan qanday foydalanilayotgani va kimlar ularga kirish imkoniyatiga ega ekanini bilishi lozim. U Buyuk Britaniyaning sog'liqni saqlash tizimida tibbiy ma'lumotlarning maxfiylikni ta'minlash bo'yicha qonunchilikni yanada kuchaytirishni taklif qiladi [5].

Axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi sohasida taniqli olim David Gunkel tibbiyot texnologiyalari va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib boradi. Uning fikricha, zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili jarayonida shaxsiy ma'lumotlarning muhofazasi uchun innovatsion yechimlar ishlab chiqilishi zarur. Gunkel, shuningdek, sog'liqni saqlashda axborot xavfsizligi siyosatini rivojlantirishda texnik hamda huquqiy choralar o'rtasida muvozanat saqlash kerakligini ta'kidlaydi [6].

Xorijiy olimlarning fikrlaridan kelib chiqqan holda sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning huquqiy jihatlari milliy qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni inobatga olish bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, qonunchilikda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va bemorlarning shaxsiy huquqlarini himoya qilish o'rtasida nozik muvozanat saqlanishi kerak.

Fikrimizcha, tibbiy ma'lumotlarning maxfiyligi axborotlar bilan bog'liq huquqiy normalarni mustahkamlash va ularni qonuniy asosda nazorat qilish, jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda sog'liqni saqlash tizimi vakillari o'rtasidagi hamkorlikning muhimligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, ax-

borot texnologiyalari orqali sog'liqni saqlash tizimida shaxsiy ma'lumotlarni nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini qayd etadi.

Material va metodlar

Tadqiqot davomida sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashning bugungi raqamlashtirish davridagi o'rni, tibbiy ma'lumotlarning xavfsizligi tushunchalari xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida o'rganildi. Masofaviy tibbiy xizmat ko'rsatishda shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha olimlarning fikrlari qiyosiy tahlil qilindi. Maqolada tahlil, qiyoslash, taqqoslash, tizimlilik va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash bugungi kunda muhim masalalardan hisoblanadi. Zamonaviy tibbiyot rivojlanishi bilan sog'liqni saqlash tizimida elektron va raqamli xizmatlardan keng foydalanilmoqda. Bu esa bemorlarning shaxsiy va tibbiy ma'lumotlarini yig'ish, saqlash, ulardan tizim ichida foydalanishni ancha osonlashtiradi. Lekin bemorlarning shaxsiy ma'lumotlarini noqonuniy ishlatish va axborot xavfsizligining buzilishi sog'liqni saqlash tizimining ishonchligiga putur yetkazishi mumkin. Shu sababli, so'ngi yillarda turli mamlakatlarda sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda [7].

Tibbiy ma'lumotlarning xavfsizligi shaxsiy va maxfiy tibbiy ma'lumotlarni ruxsatsiz kirishdan, buzilishdan hamda oshkor etilishdan himoya qilishni nazarda tutadi. Bu masala zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Olimlar va mutaxassislar tibbiy ma'lumotlar xavfsizligi haqida turli fikrlarni bildiradilar.

A.R. Jonsen, W.J. Winsladelarning fikriga ko'ra, tibbiy ma'lumotlar shaxsiy va maxfiy bo'lgani sababli, ularni himoyalash zarurati juda yuqori. Ma'lumotlar noto'g'ri qo'llarga

tushishi tibbiy xizmatlar ko'rsatish jarayonida o'zining salbiy oqibatlarini ko'rsatishi mumkin, shu jumladan, bemorlarning sog'ligiga zarar yetkazishi yoki noto'g'ri davolashga olib kelishi ehtimoli bor [8].

E.B. Rubin esa tibbiy ma'lumotlar xavfsizligi uchun raqamli himoya vositalarini takomillashtirishni taklif etadi. Masalan, *kriptografiya*, *sun'iy intellekt* yordamida himoya usullarini kuchaytirish, *blokcheyn texnologiyalari* orqali ma'lumotlarni nazorat qilish kabi usullar muhim hisoblanadi [9].

Tibbiyot tizimlariga kiberhujumlar soni ortib borayotgani olimlarni xavotirga solmoqda. Tibbiy ma'lumotlar katta qiymatga ega bo'lgani sababli ular o'g'irlanishi yoki shantaj uchun ishlatilishi mumkin. Shuning uchun olimlar tibbiyot muassasalarida kiberxavfsizlik choralari kuchaytirishni tavsiya qilishadi.

Umuman olganda, olimlar va tibbiyot sohasidagi mutaxassislar tibbiy ma'lumotlar xavfsizligi masalasini dolzarb muammo sifatida qabul qiladilar hamda ushbu ma'lumotlarni himoya qilishda texnologik rivojlanish, huquqiy me'yorlar va kiberxavfsizlik choralari uyg'unlashtirishni talab etadilar.

Yevropa Ittifoqi tomonidan 2018-yilda kuchga kirgan Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish nizomi (*General Data Protection Regulation, GDPR*) sog'liqni saqlash sohasidagi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda muhim bosqich bo'ldi. Tadqiqotchilar bu qonuniy hujjatning sog'liqni saqlash tizimiga ta'sirini o'rganganlar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, GDPR sog'liqni saqlash tizimida shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va ishlatishda qat'iy nazoratni ta'minlaydi. Masalan, A. Wesley va M. Taylor tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda GDPRning sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashdagi rolga ijobiy baho berilgan. Uning bemorlardan rozilik olish, shaxsiy ma'lumotlardan cheklangan holda foydalanish kabi tamoyillarni mustahkamlagani ta'kidlangan [10].

Bugungi kunda Elektron sog'liqni saqlash tizimlari va elektron tibbiy yozuvlar (*Electronic Health Records, EHR*) keng qo'llangani bois, tadqiqotchilar axborot xavfsizligiga doir muammolarni chuqur tahlil qilishmoqda. E.K. Moskovkina elektron tibbiy yozuvlar xavfsizligi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida tibbiyot tizimlarida ma'lumotlarni shifrlash, kirish huquqini cheklash, xavfsizlik protokollarini qo'llash va axborot xavfsizligi bo'yicha xodimlar malakasini oshirishga doir choralarni tavsiya qiladi. U, shuningdek, tibbiy ma'lumotlarni qayta ishlashda rozilik asosida foydalanish va maxfiylik siyosatini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi [11].

Sog'liqni saqlash tizimida bemorlarning shaxsiy ma'lumotlari bilan ishlash jarayonida bemorning roziligi muhim ahamiyatga ega. D. Gunkel o'z tadqiqotlarida bemorlarning roziligini olish jarayonida raqamli texnologiyalar qo'llanishi kerakligini ta'kidlaydi [6]. Uning tadqiqotlari bemorning roziligini elektron shaklda olish, rozilik jarayonini sodalashtirish va ularni oson kuzatish imkoniyatini yaratish orqali shaxsiy ma'lumotlar noqonuniy ishlatilishining oldini olish mumkinligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, shaxsiy ma'lumotlardan qanday foydalanilayotgani to'g'risida bemorlarga to'liq ma'lumot berish tizimning ochiqligini oshiradi va ishonchni mustahkamlaydi.

So'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimida sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlilidan foydalanish jarayonida shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar o'sib bormoqda. John W. Ladley va Cathy O'Neil sun'iy intellekt asosida tibbiyot tizimida shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashning xavfsiz jihatlarini o'rganib, AI texnologiyalari orqali ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning innovatsion usullarini ishlab chiqishni tavsiya qiladilar. Ularning tadqiqotlari AI yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlash jarayonida shaxsiy ma'lumotlarning anonimligi hamda xavfsizligini saqlash texnolo-

giyalarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda [12].

Shifrlash texnologiyalari sog'liqni saqlash tizimida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning asosiy usullaridan biri sifatida ko'riladi. Bruce Schneier kabi axborot xavfsizligi bo'yicha yetakchi olimlar tibbiy yozuvlarni shifrlash orqali ularning maxfiyligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Ularning tadqiqotlari tibbiy ma'lumotlarni uzatish va saqlash jarayonida kuchli shifrlash algoritmlarini qo'llash xavfsizlikni oshirishi va ma'lumotlar o'g'irlanishining oldini olishini ko'rsatmoqda. Shuningdek, Paul Syverson tibbiy ma'lumotlarni o'zgartirish yoki noqonuniy kirishni sezuvchi tizimlarni rivojlantirishga e'tibor qaratadi [13].

AQSh va Yevropa mamlakatlarida sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borilmoqda. Abedjan, Ziawasch o'z tadqiqotlarida Yevropa Ittifoqidagi GDPR qonunchiligining sog'liqni saqlash tizimiga ta'sirini o'rgangan va AQShdagi *Health Insurance Portability and Accountability Act (HIPAA)* qoidalarini tahlil qilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro tajribalardan foydalanish orqali milliy sog'liqni saqlash tizimlarida ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash samarali usul hisoblanadi [14, 15]. Ayniqsa, sog'liqni saqlash tizimida ma'lumotlardan foydalanish va ularning himoyasi uchun global standartlarni joriy qilish bemorlarning huquqlarini yanada yaxshiroq himoya qilishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasi faqat texnik va huquqiy chora-tadbirlar bilan emas, balki xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni milliy qonunchilikka integratsiya qilish orqali ham hal etilishi lozim. Sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, texnik va huquqiy choralarni birgalikda qo'llash ma'lumotlarning xavfsizli-

gini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Elektron sog'liqni saqlash tizimlarida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish texnologiyalari, tibbiy yozuvlarni shifrlash, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni tahlil qilishda xavfsizlik choralarini kuchaytirish zarurati kundan kunga o'sib bormoqda. Shu bilan birga, xalqaro tajriba va qonunchilik standartlarini o'rganish, ularni milliy tizimlarga moslashtirish orqali sog'liqni saqlash tizimida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini yanada mustahkamlash mumkin.

Xulosalar

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimining izchil rivojlanib borishi aholining shaxsiy ma'lumotlari, xususan, tibbiy yozuvlarning himoyasini ta'minlash masalasining dolzarbligini oshiradi. Tibbiy ma'lumotlar bemorning sog'lig'i, davolanish tarixi, tibbiy tekshiruvlar natijalari va boshqa shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu turdagi ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilsa yoki tarqalib ketsa, bemorning huquqlari buzilishi mumkin. Shu sababli, sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun qator huquqiy choralarini ko'rish zarur.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni ma'lumotlar himoyasi borasida muhim huquqiy asos sanaladi. Ushbu qonunda shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatish tartiblari belgilangan. Biroq sog'liqni saqlash sohasidagi ma'lumotlar xos bo'lgani sababli, ularning maxfiyligini ta'minlash uchun maxsus normalarni ishlab chiqish zarurati mavjud. Shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy qayta ishlanishi va ulardan foydalanishning oldini olish uchun qo'shimcha qoidalarni ishlab chiqish, ularni amalda joriy etish talab qilindi.

"Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi asosiy tushunchalari quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq: "shaxsning tibbiy ma'lumotlari xavfsizligi – shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanishda maxfiy tibbiy ma'lumotlarni ruxsatsiz kirishdan, buzilishdan va oshkor etilishdan himoya qilishdir".

O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi elektron shaklga o'tish jarayonini boshdan kechirmoqda. Jarayon tizimda axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni talab qiladi. Elektron tibbiy yozuvlar (*Electronic Health Records, EHR*) joriy etilishi tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonini soddalashtiradi, ammo shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashni kuchaytirishni ham talab qiladi.

Sog'liqni saqlash sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishda UZINFOCOM yagona integratorida ishlashda quyidagi choralar ko'rilishi lozim:

elektron tizimlarda bemorlar haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni uzatish va saqlash jarayonida kuchli shifrlash texnologiyalarini qo'llash;

bu ma'lumotlarning noqonuniy kirish va ulardan foydalanishdan himoyalanihiga doir choralarni ko'rish;

tibbiy ma'lumotlarga kirish huquqi faqat belgilangan mutaxassislar bilan cheklanishini ta'minlash;

ushbu ma'lumotlarga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar maxfiylik siyosatiga amal qilishlari va bu borada doimiy nazorat organini tashkil etish;

sog'liqni saqlash tizimlarida muntazam ravishda xavfsizlik tekshiruvlari o'tkazish, zararli dasturlardan himoyalanih va ma'lumotlarning zaxira nusxalarini yaratish bo'yicha qat'iy choralar ko'rish orqali ekspertlar jamoasini shakllantirish lozim.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. Sog'liqni saqlash tizimini zamon talabi darajasida takomillashtirish – kun tartibidagi asosiy masala [Improvement of the health care system at the level of current requirements is the main issue on the agenda]. We will resolutely continue the path of national development and raise it to a new level. Tashkent, Uzbekiston Publ., 2017, p. 309.
2. Rosique I., Pérez-Cárceles M.D., Romero-Martín M., Osuna E., Luna A. The use and usefulness of information for patients undergoing anaesthesia. *Med Law*, 2006, no. 25, pp. 715–727.
3. Usmanova E.F., Gorbacheva K. S. Kul'tura protsessual'nykh dokumentov [Culture of protsessual documents]. *XLVII Ogavyov Readings: Proceedings of the scientific conference*. Saransk, Mordov State University named after M.P. Ogavyov, 2019, pp. 527–530.
4. Gostin O. Voznikoveniye ponyatiya mezhdunarodnogo prava zdravookhraneniya [Emergence of the concept of international health law]. *Proceedings of the 3rd international scientific conference (Odessa, 2012, November 2-3)*. Kazan State University, National University "Odessa Law Academy". Odessa, Phoenix, 2012, pp. 115–118.
5. Institute of Medicine (US) Committee on Quality of Health Care in America. *To Err is Human: Building a Safer Health System*. L.T. Kohn et. al. (Eds.). National Academies Press (US), 2000. DOI: 10.17226/9728
6. Gunkel D.J. *The Machine Question: Critical Perspectives on AI, Robots, and Ethics*. The MIT Press, 2012. DOI: 10.7551/mitpress/8975.001.0001
7. Protection of personal information in information systems: principles and procedures used in the field of health. Kopenhagen, WHO Regional Office for Europe, 2020.
8. Jonsen A.R., Siegler M. Winslade W.J. *Clinical Ethics: A Practical Approach to Ethical Decisions in Clinical Medicine*. 7th ed. New York, NY, McGraw Hill, 2010, p. 174.
9. Rubin E.B. Professional conduct and misconduct. *Handbook of Clinical Neurology*, 2013, no. 118, pp. 91–105.
10. Gillies M.A., Baldwin F.J. Do patient information booklets increase peri-operative anxiety? *Eur J Anaesthesiol*, 2001, no. 18, p. 620.
11. Moskovkina E.K. Patient's Privacy and Relatives' Rights in Genetic Research. *Lex Genetica*, 2023, vol. 2 (2), pp. 53–73.
12. John W. *Data Governance: How to Design, Deploy, and Sustain an Effective Data Governance Program*. Waltham, Morgan Kaufmann, 2012. DOI: 10.1016/C2011-0-04633-1
13. Syverson, P. Privacy-Protecting COVID-19 Exposure Notification Based on Cluster Events. 2021. *arXiv preprint arXiv:2201.00031*.
14. Abedjan Z. et al. *Data Science in Healthcare: Benefits, Challenges and Opportunities*. Consoli S., Reforgiato Recupero D., Petković M. (Eds.) Data Science for Healthcare. Springer, Cham, 2019. DOI: 10.1007/978-3-030-05249-2_1
15. Health system efficiency. How to make measurement matter for policy and management. Copenhagen, WHO Regional Office for Europe, 2016.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 5-SON

VOLUME 4 / ISSUE 5 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.5.